

**SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA TIZIMINING SHAKLLANISHIDA  
O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING TARIXIY  
TAJRIBASI  
(1946-1956 YILLAR)**

**Abduraximova Shaxnoza Asatullayevna,**  
*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent axborot texnologiyalar universiteti*

*“Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti, PhD.*

[shahnozaabdurahimova373@gmail.com](mailto:shahnozaabdurahimova373@gmail.com)

**Abstract.** *This article examines issues of healthcare in the Uzbek SSR during the Soviet era, specifically: healthcare services for the population, diseases that emerged in the region, measures to eradicate them, existing problems, the creation of a healthcare system, the construction and maintenance of hospitals, and the provision of the country with doctors.*

**Keywords:** *healthcare, infectious diseases, medicine, hospital, maternity hospital, malaria, plague, wounds, plague, and leprosy.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются вопросы медицинского обслуживания в Узбекской ССР в советскую эпоху, в частности: медицинское обслуживание населения, заболевания, возникшие в регионе, меры по их искоренению, существующие проблемы, создание системы здравоохранения, строительство и содержание больниц, а также обеспечение страны врачами.*

**Ключевые слова:** *здравоохранение, инфекционные заболевания, медицина, больница, родильный дом, малярия, чума, раны, чума и проказа.*

**Аннотация.** *Ушбу мақолада шўролар даврида Ўзбекистон ССРда тиббий хизмат масалалари, хусусан: аҳолига кўрсатилган тиббий хизматлар, ҳудудда юзага келган касалликлар, уларни бартараф этиши чора тадбирлари, мавжуд муаммолар, соғлиқни сақлаш тизимининг йўлга қўйилиши, шифохоналарнинг қурилиши ва таъминоти, ўлканинг шифокорлар билан таъминланиши масалалари ёритилган.*

**Калим сўзлар:** *Соғлиқни сақлаш, юқумли касалликлар, тиббиёт, шифохона, тугруқхона, безгак, вабо, захм, ўлат ва мохов касалликлари.*

**Kirish.** 1946 yili Sog‘liqni saqlash xalq kamisarlighi o‘rniga Sog‘liqni saqlash vazirlighi tashkil etiladi[1].

Respublikada jami 176 ta (shaharlarda 59 ta, qishloqlarda 117 ta) sanitariya-epidemiyo‘lo‘giya bo‘limlari faoliyat ko‘rsatib, ularda 300 ga yaqin shifokor hamda 1000 ta o‘rta ma‘lumotli tibbiyot xodimi ishlagan. Ammo yuqumli kasalliklar tarqalish ko‘rsatkichi yuqori darajada saqlanib qolavergan. 1947 yili birgina Buxoro viloyatida 20 000 kishi bezgakka chalingan[2]. 1947 yil 11 avgustda viloyat ijroiya qo‘mitasi raisi S. Nazarov O‘zbekiston SSR vazirlar kengashi raisi Abdurahmonovga kasallikni bartaraf etish uchun mutaxassislar bilan birga tibbiyot o‘quv yurtlari talabalarini yuborish, akrixin kukunini ajratish hamda zaruriy avtotranspo‘rt bilan ta‘minlashni so‘rab murojaat qilgan. Shundan so‘ng, viloyatga 19 shifokor, 40 feldsher, 15 kg akrixin kukuni va 96 kg habdorisi yuborilgan[3].

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”  
XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Aholi o‘rtasida o‘tkir-ichak yuqumli kasalliklari keng tarqalishi davom etan. Birgina Toshkent shahrida 79 foiz, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qorin tifi 27 foiz, ichburug‘ 49 foizni tashkil etgan. Umumiy ovqatlanish hamda oziq-ovqat do‘konlari sanitar tekshiruvlardan o‘tkazilganda, respublika bo‘yicha ularning 21 tasi sanitariya-epidemiyo‘lo‘giya talablariga javob bermaganligi tufayli yopilgani, 823 tasi esa o‘rnatilgan tartibda jarimaga tortilgani aniqlangan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, emlash ishlari ham olib borilib, respublika bo‘yicha yuqumli o‘tkir ichak kasalliklariga qarshi emlash qog‘ozda 116 foizni tashkil qilgani ma‘lum[4].

1947 yili Respublika sanitariya va gigiyena ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan. 1948 yili respublikada epidemiyo‘lo‘giya, gigiyena va yuqumli kasalliklar bo‘yicha ilk marta shifokorlar qurultoyi bo‘dib o‘tadi. Biroq amaliyotda yuqumli kasalliklarning ortib borish manzarasi o‘zgarishsiz qolaveradi. Yashasha joylardagi sanitar-epidemiyo‘lo‘gik holatning og‘irligi, ichimlik suvi, isitish tizimi, hammomlar bilan ta‘minlanmaganlik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy omil bo‘lgan.

Masalan, 1947 – 1948 yillari Qashqadaryo viloyatining Ko‘kbuloq va Miroqi tumanlarida ich terlama bilan kasallanishlar soni ortib ketgan. Samarqand, Andijon va Toshkent viloyatlarida esa ich terlamaga qarshi kurash ishlari qoniqarsiz olib borilgan.

1952 yil 13 maydan Sanitariya-epidemiyo‘lo‘giya bo‘limlari mustaqil soha sifatida faoliyat yurita boshlaydilar. Biroq tibbiyot sohasini mutaxassislar bilan ta‘minlashda bir qator muammolar o‘zgarishsiz qolgan[4].

**Muhokama va natijalar.** Xususan, Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritgan 9 sanitar shifokorining hammasi markazdan vaqtinchalik ishga taqsimlangan. Tadqiq etilgan davrda yosh bolalar o‘rtasida qizamiq, bo‘g‘ma, bezgak, sil, yuqumli ichak va turli teri kasalliklarining tarqalishi davom etgan. 1946 yili faoliyat yuritgan 21 ta bolalar shifoxonasida yuqumli kasallar uchun 1325 ta o‘rin ajratilib, ulardan 85 tasi sil kasallari uchun belgilangan. Ammo ular shaharda joylashgani bois, qishloq aholisi deyarli foydalanmas va o‘ta og‘ir kasallangan bolalar tuman markaziy kasalxonalarida kattalar bilan birga davolanishga majbur bo‘lganlar[5].

**1946 – 1956 yillarda O‘zbekiston SSRda yosh bolalar orasida tarqalgan yuqumli kasalliklar (har 1000 ta bolaga)**

№	Kasalliklar	Yillar		
		1946	1950	1956
1	Bo‘g‘ma	16,0	9,1	6,2
2	Qizamiq	13,0	6,3	3,0
3	Qizilcha	3,0	1,1	0,2
4	Ichburug‘	12,0	8,5	5,0
5	Zotiljam	26,0	20,0	17,4[6]

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”  
XALQARO ILMIIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

O‘zbekiston SSR vazirlar kengashining 1955 yil 29 oktabrdagi 715-qarorida “Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri aholisini chechakka” qarshi emlash bo‘yicha bir qator vazifa va topshiriqlar belgilangan bo‘lsa-da, ammo uning ijrosi to‘laqonli darajada bajarilmagan. Masalan, qarorga asosan, Toshkent shahri aholisining 800 000 kishidan 627 000 tasi chechakka qarshi emlangan. Xorazm viloyatida 381 000 aholidan 287 000, Andijonda 702 000 tadan 382 000, Farg‘ona viloyatida 856 600 tadan 477 000, Qoraqalpog‘iston ASSRda esa 439 000 tadan 250 000 kishi emlangan edi. Emlash uchun aholining to‘liq qamrab olinmaganligi tufayli, birgina Nukus shahri sanepid bo‘lmida 2 000 ga yaqin chechakka qarshi emdorining muddati o‘tib ketgani ma‘lum[7]. Bo‘g‘ma bo‘yicha emlash ishlari respublikadagi yosh bolalarning 52 foizini tashkil etgan. Masalan, ushbu ko‘rsatkich Xorazmda 45 foiz, Buxoroda 30 foiz, Qashqadaryoda esa 28 foiz foizni tashkil etgan. Qorin tifiga qarshi emlashda ham aholi, ayniqsa, maktab o‘quvchilari to‘liq qamrab olinmagan. Masalan, Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumanida kasallanish asosan maktab o‘quvchilari orasida ko‘payganligiga qaramasdan, ularni emlash ishlari deyarli olib borilmagan. Oqibatda, ushbu kasallikka chalinish holatlari 1957 yili 1956 yilga nisbatan 3 martaga oshgan.

1956 yilga kelib o‘tkazilgan keng qamrovli tadbirlar natijasida bezgak ommaviy kasallik tariqasida rasman tugatiladi. Shuningdek, sil, ichterlama, tepki va chinchechakni ham sezilarli darajada kamaytirishga muvaffaq bo‘linadi. Ammo ushbu davrda shilpiq bilan kasallanish darajasi ortib borgan. Xususan, Qoraqalpog‘iston ASSRda 3255, Surxondaryoda 386, Qashqadaryoda 186, Andijon viloyatida 1998 kishi ushbu kasallikka chalingan edi. Kasallanganlarning 40 foizi maktab o‘quvchilari, 14 foizi esa harbiy xizmatga chaqiruv yoshidagilar edilar[8].

**Qoraqalpog‘iston ASSRda yuqumli kasalliklarning tarqalishi**

Kasallik turlari	1954 yili	1955 yili	1956 yili
Qorin tifi	71	157	23
O‘tkir ichburug‘	954	2325	193
Yalpi sariq	198	324	172
Ko‘k yo‘tal	213	209	273
Bo‘g‘ma	230	230	72
Yalpi tepki	13	1188	690
Suvchechak	121	154	126[9]

1956 yili Qoraqalpog‘iston ASSR Kegeyli, Qipchoq (hozirgi Mo‘ynoq), Kuybishev (hozirgi Beruniy) va Shumanay tumanlari aholisi orasida qorin tifi, To‘rtko‘l, Qorao‘zak, Kenes, Taxtako‘pir tumanlarida qo‘k yo‘tal, Nukus, Shumanay, Keness (hozirgi Chimboy) hamda Taxtako‘pir tumanlarida bo‘g‘ma keng tarqalgan. Buning asosiy sabablarida biri, sanitariya mutaxassislarining yetishmasligi bo‘lgan. Jumladan, 1956 yil holatiga ko‘ra, lavozimlar jadvalidagi yuqumli kasalliklarni

davolovchi 722 o‘rniga 198 ta (27 foiz) shifokor faoliyat yuritgan. Shaharlarda har bir shifokorga 4 ta, qishloqlarda esa 5 lavozim to‘g‘ri kelgan [10].

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi-SSSRning eng muhim mustamlakasi sanalmish O‘zbekiston SSRda yuzaga kelgan og‘ir sanitar holat, tibbiyotidagi qoloqlik va inqiroz, eng avvalo, sovet hokimiyatining iqtisodiy, ijtimoiy hamda ma’naviy hayotda olib borgan samarasiz va adolatsiz, “ulug‘ og‘achilik” siyosati sababli yuzaga kelgan. Sanitariya muassasalari va ularda ishlovchi mutaxassislar sonining yildan-yilga oshishi sohadagi yutuqdek namoyish qilingan bo‘lsa-da, aslida aholi salomatligini muhofaza qilish ishlari qoniqarsiz tashkil etilib, muntazam ravishda tarqalib turgan turli xil yuqumli kasalliklarning oldini olishda chorasiz qolingani edi. Oddiy dizenfeksiya vositalaridan tortib, zaruriy dorilar Maskva izni bilan ajratilishi, O‘zbekiston SSRning o‘zida dori-darmon ishlab chiqaruvchi korxonlarning yo‘qligi, yuqumli kasalliklar shifoxonalarini sanitariya talablarga javob bermagan, moslashtirilgan binolarda ochish hisobiga og‘ir muammolarni yashirish o‘ta yomon oqibatlariga olib kelgan, minglab odamlarning nogiron bo‘lib qolishlari yoki bevaqt o‘limiga sabab bo‘lgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. ЎзМА, Р- 2806-фонд, 1-рўйхат, 3325-йиғмажилд, 2-варақ.
2. ЎзМА, Р- 2290-фонд, 1-рўйхат, 3562-йиғмажилд, 25-варақ.
3. ЎзМА, Р- 2454-фонд, 6-рўйхат, 4252-йиғмажилд, 9-варақ.
4. ЎзМА, Р- 2582-фонд, 1-рўйхат, 3945-йиғмажилд, 18-варақ.
5. Мўминова Г. Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар)..... – Б. 224.
6. [www.meduza.ru](http://www.meduza.ru). В СССР все было самое лучшее. На самом деле нет. Главные мифы о «золотом веке» позднем Советском Союзе.
7. Дала тадқиқотлари. Тошкент шаҳри. 2022 йил 20 сентябрь. Ахборотчи – тиббиёт фанлари доктори, профессор, фтизиатр шифокор - А.С.Содиқов.
8. Рахимов Э.В. Экономические основы и развитие здравоохранения Узбекской ССР: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1973. – С.10.
9. Советский Узбекистан за 40 лет / Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – С.335.
10. Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет советской власти.... – С. 286–287.